



THE PHENOMENON OF “SECURITY”: MODERN SOCIO-PHILOSOPHICAL THEORIES AND CONCEPTUAL MODELS

Jakhongir Boybutayev

PhD, Associate Professor

Academy of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: danger, threat, security, human security, state security, social stability, global threats, integrative security.

Received: 20.07.26

Accepted: 21.07.26

Published: 22.07.26

Abstract: The article analyzes the socio-philosophical content, historical evolution, and modern conceptual transformation of the "security" phenomenon. Classical and modern theoretical approaches to security have been comparatively studied, and the transition of this concept from its traditional interpretation based on the absence of dangers and threats to its modern content as a multi-level social system that ensures the sustainable development of the individual, society, and the state has been revealed. From ancient philosophy to the 21st century, the main security objects, the nature of threats, and changes in protection mechanisms have been systematized. Under the influence of globalization, digitalization, terrorism, cyber threats, pandemics, and environmental crises, the transformation of security from a state-centered model to an integrative model based on the interdependence of “person-society-state” is substantiated.

“XAVFSIZLIK” FENOMENI: ZAMONAVIY IJTIMOY-FALSAFIY NAZARIYALAR VA KONSEPTUAL MODELLAR

Jahongir Boybutayev

PhD, dotsent

O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi

Toshkent, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: xavf, tahdid, xavfsizlik,

Annotatsiya: Maqolada “xavfsizlik”

inson xavfsizligi, davlat xavfsizligi, ijtimoiy barqarorlik, global tahdidlar, integrativ xavfsizlik.

fenomenining ijtimoiy-falsafiy mazmuni, tarixiy evolyutsiyasi va zamonaviy konseptual transformatsiyasi tahlil qilingan. Xavfsizlikka oid klassik va zamonaviy nazariy yondashuvlar qiyosiy o'rganilib, mazkur tushunchaning xavf va tahdidlarning mavjud emasligiga asoslangan an'anaviy talqindan inson, jamiyat va davlatning barqaror rivojlanishini ta'minlovchi ko'p darajali ijtimoiy tizim sifatidagi zamonaviy mazmunga o'tishi ochib berilgan. Antik falsafadan XXI asrgacha bo'lgan davrda xavfsizlikning asosiy obyekti, tahdidlar xususiyati va himoya mexanizmlaridagi o'zgarishlar tizimlashtirilgan. Globallashuv, raqamlashuv, terrorizm, kiberxavflar, pandemiyalar va ekologik inqirozlar ta'sirida xavfsizlikning davlat markazli modeldan "inson – jamiyat – davlat" o'zaro bog'liqligiga asoslangan integrativ modelga transformatsiyasi asoslangan.

ФЕНОМЕН “БЕЗОПАСНОСТИ”: СОВРЕМЕННЫЕ СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЕ ТЕОРИИ И КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ МОДЕЛИ

Жахонгир Бойбутаев

PhD, доцент

Академии МВД Республики Узбекистан

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: опасность, угроза, безопасность, безопасность человека, государственная безопасность, социальная стабильность, глобальные угрозы, интегративная безопасность.

Аннотация: В статье анализируется социально-философское содержание, историческая эволюция и современная концептуальная трансформация феномена "безопасность." Сравнительно изучены классические и современные теоретические подходы к безопасности, раскрыт переход данного понятия от традиционной интерпретации, основанной на отсутствии опасностей и угроз, к современному содержанию как многоуровневой социальной системы, обеспечивающей устойчивое развитие человека, общества и государства. В период от античной философии до XXI века систематизированы основные объекты безопасности, характер угроз и изменения в механизмах защиты. Под влиянием глобализации, цифровизации, терроризма, киберугроз, пандемий и экологических кризисов обоснована трансформация безопасности от

централизованной на государстве модели к интегративной модели, основанной на взаимозависимости “человек – общество – государство”.

Kirish. “Xavfsizlik” fenomeni insoniyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida dolzarb ahamiyat kasb etgan fundamental ijtimoiy-falsafiy muammolardan biri hisoblanadi. Inson hayoti, jamiyat barqarorligi va davlat taraqqiyotining izchil rivojlanishi xavfsizlik bilan bevosita bog‘liq bo‘lganligi sababli, mazkur fenomen doimo falsafa, siyosatshunoslik, huquqshunoslik, xalqaro munosabatlar va boshqa ijtimoiy fanlarning tadqiqot obyekti bo‘lib kelgan.

Bugungi kunda globallashtirish, raqamlashuv va transmilliy integratsiya jarayonlarining jadallashuvi xavfsizlikka nisbatan mavjud nazariy qarashlarni qayta ko‘rib chiqishni taqozo etmoqda. Zamonaviy dunyoda terrorizm, ekstremizm, transmilliy uyushgan jinoyatchilik, kiberxavflar, noqonuniy migratsiya, ekologik inqirozlar, pandemiyalar va axborot xurujlari kabi tahdidlar alohida davlat yoki mintaqa doirasi bilan cheklanmay, inson, ijtimoiy guruhlar, jamiyat va davlatlarga bir vaqtning o‘zida ta’sir ko‘rsatuvchi global muammolarga aylanmoqda. Bu jarayon xalqaro hamkorlik, ijtimoiy barqarorlik va barqaror taraqqiyotga ham jiddiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu bois, insoniyat va davlatlar oldida turgan zamonaviy tahdidlarni kompleks yondashuv asosida o‘rganish, ularning ijtimoiy-falsafiy mohiyatini ochib berish hamda xavfsizlikni ta’minlashning nazariy asoslarini takomillashtirish muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Bu esa xavfsizlik fenomenini faqat siyosiy yoki harbiy kategoriya sifatida emas, balki inson, jamiyat va davlat o‘rtasidagi munosabatlarni qamrab oluvchi ko‘p darajali ijtimoiy-falsafiy fenomen sifatida tadqiq etish zaruratini yuzaga keltiradi.

Zamonaviy ijtimoiy falsafada xavfsizlik davlat manfaatlarini himoya qilish bilan cheklanmaydi. U inson xavfsizligi, ijtimoiy adolat, institutsional barqarorlik, ijtimoiy ishonch, qadriyatlar tizimi va barqaror taraqqiyot bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan murakkab ijtimoiy tizim sifatida talqin qilinmoqda. Shu nuqtayi nazardan, xavfsizlik fenomenini klassik va zamonaviy nazariyalar asosida qayta tahlil qilish hamda ularni konseptual jihatdan umumlashtirish bugungi kunda ijtimoiy falsafaning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Muhokama va natijalar. Zamonaviy ijtimoiy fanlarda “xavf” va “xavfsizlik” tushunchalariga nisbatan yagona nazariy yondashuv mavjud emas. Bu, avvalo, mazkur kategoriyalarning turli fanlar doirasida turlicha mazmunda talqin qilinishi bilan izohlanadi. Falsafa, siyosatshunoslik, huquqshunoslik, sotsiologiya va xalqaro munosabatlar sohalarida “xavf”, “tahdid”, “xatar” kabi tushunchalar o‘zaro yaqin mazmunga ega bo‘lsa-da, ularning mohiyati va qo‘llanilish doirasi bir xil emas. Ayrim tadqiqotchilar xavfni davlatlar o‘rtasidagi

geosiyosiy raqobat va tashqi tahdidlar bilan bog'lasa, boshqalar uni jamiyatning ichki ijtimoiy muammolari, iqtisodiy beqarorlik, qadriyatlar inqirozi va inson xavfsizligi bilan izohlaydilar.

Lingvistik jihatdan ham "xavfsizlik" tushunchasi "xavf" kategoriyasining inkor shakli sifatida shakllangan bo'lib, muayyan tahdid yoki zarar ehtimolining mavjud emasligini anglatadi. Rus tilida "безопасность" atamasi ikki qarama-qarshi holat o'rtasidagi mantiqiy munosabat asosida shakllangan tushuncha sifatida izohlanadi [1, B. 44]. Biroq zamonaviy ijtimoiy-falsafiy yondashuvlarda xavfsizlik faqat xavfning yo'qligi emas, balki shaxs, jamiyat va davlatning barqaror rivojlanishini ta'minlovchi ijtimoiy holat sifatida ham baholanadi.

"Xavfsizlik bo'yicha rasmiy hujjatlar atamalarining izohli lug'ati"da "xavfsizlik" ikki asosiy ma'noda talqin qilinadi. Birinchi yondashuvga ko'ra, xavfsizlik inson hayoti va faoliyatiga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan maqbul bo'lmagan xavfning mavjud emasligini anglatadi. Ikkinchi yondashuvda esa xavfsizlik shaxs, jamiyat va davlatning hayotiy muhim manfaatlari ichki va tashqi tahdidlardan ishonchli himoyalangan holati sifatida izohlanadi [2, B. 25].

Mazkur ta'riflar tahlili shuni ko'rsatadiki, xavfsizlikni faqat tahdidlarning yo'qligi yoki davlat manfaatlarining himoyalanganligi bilan cheklash uning mazmunini to'liq ochib bermaydi. Globallashuv sharoitida xavfsizlik inson, jamiyat va davlat o'rtasidagi o'zaro munosabatlar, ijtimoiy institutlar barqarorligi, qadriyatlar tizimi, inson huquqlari va ijtimoiy ishonch bilan uzviy bog'liq bo'lgan ko'p qirrali ijtimoiy-falsafiy fenomen sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu nuqtai nazardan, xavfsizlik tushunchasining zamonaviy mazmunini anglash uning ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy o'lchamlarini kompleks tarzda tahlil qilishni talab etadi.

Shu bois, zamonaviy ilmiy adabiyotlarda xavfsizlik fenomeni davlat markazli yondashuvdan inson markazli yondashuvga o'tish jarayonini boshdan kechirmoqda. Bu esa xavfsizlikni inson huquqlari, ijtimoiy adolat, institutsional ishonch va barqaror taraqqiyot bilan uyg'un holda tahlil qilishni taqozo etadi. Keyingi bo'limlarda xavfsizlik fenomenining klassik va zamonaviy ijtimoiy-falsafiy nazariyalardagi talqinlari shu nuqtayi nazardan ko'rib chiqiladi.

Mahalliy olimlar orasida ham "xavf" va "xavfsizlik" tushunchalarining mazmunini tizimli tahlil qilishga qaratilgan ilmiy qarashlar mavjud. Xususan,

I.I. Boboqulov o'zining "Xavfsizlik" nomli lug'atida "xavf"ni inson, ijtimoiy guruh, jamiyat, davlat va jahon hamjamiyatiga zarar yetkazishi, moddiy va ma'naviy qadriyatlarining buzilishiga, inqirozga yoki taraqqiyotning izdan chiqishiga olib kelishi mumkin bo'lgan ehtimoliy yoki real voqea, hodisa va jarayon sifatida ta'riflaydi. "Xavfsizlik" esa inson, jamiyat va davlatning obyektiv ehtiyoji, ularning barqaror faoliyati va mavjudligining zaruriy sharti sifatida izohlanadi. Muallifning ta'kidlashicha, xavfsizlik tushunchasi xavf va tahdid, obyekt va

subyekt, xavfsizlik sohalari hamda uning siyosiy-huquqiy tabiatini anglashda boshlang'ich nazariy kategoriya vazifasini bajaradi [3, B. 53].

Rossiyalik filolog olim S.I.Ojegov esa "xavfsizlik" atamasini lingvistik nuqtai nazardan izohlab, uni "xavfning mavjud emasligi", "xavfdan himoyalanganlik" va "xavfsiz holat" ma'nolarida talqin qiladi [4, B. 39]. Ushbu yondashuv xavfsizlikning semantik mazmunini ochib bersa-da, uning ijtimoiy-falsafiy mohiyatini to'liq qamrab olmaydi.

Yuqorida keltirilgan qarashlarni qiyosiy tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, xavfsizlik tushunchasini anglashda "xavf" kategoriyasi asosiy metodologik tayanch nuqta hisoblanadi. Darhaqiqat, har qanday xavfsizlik konsepsiyasi avvalo xavf va tahdidlarning manbai, xususiyati hamda ko'lamini aniqlashdan boshlanadi. Shu sababli xavfsizlik va xavf bir-biriga qarama-qarshi tushunchalar emas, balki o'zaro dialektik bog'liq bo'lgan kategoriyalardir. Xavf mavjud bo'lgan joydagina xavfsizlikka ehtiyoj paydo bo'ladi, xavfsizlikni ta'minlash jarayoni esa xavflarni anglash, baholash va boshqarish orqali amalga oshiriladi.

Muallifning fikricha, zamonaviy ijtimoiy falsafada xavfsizlikni faqat "xavfning yo'qligi" sifatida talqin qilish yetarli emas. Xavfsizlik inson, jamiyat va davlatning tashqi hamda ichki tahdidlarga nisbatan barqaror rivojlanishini ta'minlaydigan, ijtimoiy institutlar, qadriyatlar tizimi, ijtimoiy ishonch va inson manfaatlarining o'zaro uyg'unligiga asoslangan ko'p darajali ijtimoiy-falsafiy fenomen sifatida qaralishi lozim.

Xavfsizlik fenomeni haqidagi dastlabki nazariy qarashlar antik davr faylasuflari asarlarida shakllangan. Ular xavfsizlikni davlatning harbiy qudrati bilan emas, balki adolat, qonun ustuvorligi va jamiyatning ichki barqarorligi bilan bog'lab talqin qilganlar. Shu jihatdan xavfsizlik masalasi qadimdanoq falsafiy tafakkurning muhim mavzularidan biri hisoblangan.

Aflotun "Davlat" asarida adolatli davlat tuzumi jamiyat xavfsizligining asosiy sharti ekanligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, davlatda har bir tabaqa o'z vazifasini adolatli bajargandagina ichki barqarorlik va xavfsizlik ta'minlanadi [5]. Arastu ham davlatning barqarorligi fuqarolarning huquq va erkinliklariga rioya qilinishi hamda umumiy manfaatlarni ta'minlash bilan bog'liqligini qayd etadi [6]. Demak, antik falsafada xavfsizlik tashqi tahdidlardan himoyalanişdan ko'ra, davlat va jamiyatdagi ichki muvozanatni saqlash vositasi sifatida tushunilgan.

Suqrot insonning ma'naviy kamoloti va axloqiy fazilatlarini xavfsiz jamiyat qurishning muhim sharti sifatida baholaydi. U insonning oqilona fikrlashi, adolatga intilishi va o'zini boshqara bilishi jamiyatdagi barqarorlikning asosini tashkil etishini ta'kidlaydi. Shu nuqtayi nazardan, xavfsizlikning ilk falsafiy talqinlarida inson omili markaziy o'rin egallagan.

Sharq davlatchilik an'alarida ham xavfsizlik davlat boshqaruvining asosiy vazifalaridan biri sifatida qaralgan. Ayniqsa, Amir Temurning "Temur tuzuklari"da aholi, savdogarlar va yo'lovchilar xavfsizligini ta'minlash, huquq-tartibotni saqlash hamda davlat xizmatchilarining shaxsiy mas'uliyatini oshirishga qaratilgan qoidalar bayon etilgan [7, B. 138]. Bu qarashlar xavfsizlikni faqat harbiy masala emas, balki ijtimoiy tartib, qonun ustuvorligi va davlat boshqaruvining samaradorligi bilan bog'liq kompleks hodisa sifatida tushunishga asos bo'ladi.

Zamonaviy davrga kelib xavfsizlik tushunchasining mazmuni yanada kengaydi. Terrorizm, kiberxavfsizlik, ekologik inqirozlar, pandemiyalar va transmilliy uyushgan jinoyatchilik kabi global tahdidlar xavfsizlikni davlat chegaralari bilan cheklab bo'lmaydigan murakkab ijtimoiy fenomenga aylantirdi. Shu bois, bugungi kunda xavfsizlik fenomeni harbiy yoki siyosiy kategoriya sifatida emas, balki inson, jamiyat va davlatning barqaror rivojlanishini ta'minlovchi ko'p darajali ijtimoiy tizim sifatida talqin qilinmoqda.

G'arb olimlari Barri Buzan, Ole Vever va Yaap de Vilde "Security: A New Framework for Analysis" (Xavfsizlik: tahlilning yangi tizimi) asarida xavfsizlikni an'anaviy harbiy-siyosiy yondashuv doirasidan chiqarib, uni iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik va siyosiy sohalar bilan bog'liq kompleks kategoriya sifatida asoslaydilar [8]. Ularning yondashuvi xavfsizlik nazariyasida davlat markazli modeldan inson va jamiyat markazli modelga o'tishning muhim bosqichini ifodalaydi.

Muallifning fikricha, xavfsizlik fenomenining tarixiy evolyutsiyasi uning mazmuni doimiy ravishda kengayib borganligini ko'rsatadi. Agar antik va o'rta asrlar falsafasida xavfsizlik asosan davlat tartibi va adolat bilan bog'langan bo'lsa, XXI asrda u inson xavfsizligi, ijtimoiy barqarorlik, institutsional ishonch, qadriyatlar tizimi va global hamkorlikni qamrab olgan ko'p qirrali ijtimoiy-falsafiy fenomen sifatida shakllanmoqda.

1-jadval

"Xavfsizlik" fenomenining tarixiy evolyutsiyasi va zamonaviy ijtimoiy-falsafiy transformatsiyasi

Davr	Xavfsizlikning asosiy obyekti	Asosiy tahdid	Himoya mexanizmi	Xavfsizlik modeli
Antik davr	Davlat	Ichki tartibsizlik	Adolat va qonun	Adolatli davlat modeli
O'rta asrlar	Davlat va din	Tashqi bosqin	Hukmdor hokimiyati	Teotsentrik xavfsizlik modeli
Yangi davr	Suveren davlat	Urush	Milliy armiya	Davlat markazli

				model
XX asr	Davlat va jamiyat	Harbiy-siyosiy tahdid	Milliy xavfsizlik siyosati	Milliy xavfsizlik modeli
XXI asr	Inson – jamiyat – davlat	Terrorizm, kiberxavf, pandemiya, ekologik inqiroz	Kompleks hamkorlik	Inson xavfsizligiga asoslangan integrativ model

Xulosa. Amalga oshirilgan ijtimoiy-falsafiy tahlil xavfsizlik fenomeni insoniyat tarixining turli bosqichlarida jamiyatning siyosiy tuzilishi, ijtimoiy munosabatlari va mavjud tahdidlar xususiyatiga muvofiq ravishda mazmunan transformatsiyalanib borganligini ko‘rsatdi. Antik davrda xavfsizlik adolat, qonun va ichki ijtimoiy muvozanat bilan bog‘langan bo‘lsa, keyingi tarixiy bosqichlarda davlat hokimiyati, suverenitet, harbiy qudrat va milliy manfaatlarni himoya qilish uning asosiy mezonlariga aylandi. XXI asrga kelib esa xavfsizlikning an‘anaviy davlat markazli talqini zamonaviy tahdidlarning murakkab va transmilliy xususiyatini to‘liq ifodalay olmay qoldi.

Tadqiqot natijalari xavfsizlikni faqat xavf va tahdidlarning mavjud emasligi yoki muayyan obyektning tashqi ta’sirlardan himoyalanganlik holati sifatida tushunish metodologik jihatdan cheklangan yondashuv ekanligini ko‘rsatadi. Shundan kelib chiqib, xavfsizlikni “inson – jamiyat – davlat” o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikka asoslangan ko‘p darajali integrativ ijtimoiy-falsafiy fenomen sifatida talqin qilish maqsadga muvofiq. Mazkur yondashuvda inson xavfsizlikning asosiy qadriyatiy mezoni, jamiyat uning ijtimoiy barqarorlik muhiti, davlat esa xavfsizlikni institutsional ta’minlovchi subyekt sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu uch darajadan birida yuzaga kelgan beqarorlik boshqa darajalarga ham ta’sir ko‘rsatishi sababli, zamonaviy xavfsizlikni alohida sohalar yoki subyektlar doirasida ta’minlash mumkin emas.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Словарь иностранных слов. 19-е изд., стер. – Москва: Рус. язык, 1990.
2. Словарь терминов официальных документов по безопасности. – Москва: Закрытое акционерное общество “Научно-технический центр исследований проблем промышленной безопасности”, 2017.
3. Boboqulov I.I. Xavfsizlik: Lug‘at. – Toshkent: Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti, 2011.
4. Ожегов С.И. Словарь русского языка. – Москва: 1983.
5. Аристотель. Политика. – Москва: Азбука-Аттикус, 2015.
6. Aflotun. Davlat: nasriy doston. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2024.

7. Temur tuzuklari. – Toshkent: “O‘zbekiston”. 2013.
8. Barry Buzan, Ole Weaver, Jaap de Wilde. Security: A New Framework for Analysis. – London: Lynne Rienner Publishers, 1998.